

SARGUZASHT ADABIYOTINING SHAKLLANISHI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ilhomova Dilnoza Jahongir qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti

E-mail: ilhomovadilnoza407@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sarguzasht atamasining yuzaga chiqishi, adabiyotning bir yo‘nalishi sifatida rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sarguzasht, voqeaband asar, tasodif, fantastika, fantastik sarguzasht, ilmiy-fantastik sarguzasht, tabiat bilan aloqador sarguzasht, tarixiy sarguzasht

THE EVOLUTION OF THE ADVENTURE LITERATURE AND ITS FEATURES

Abstract: To coin the term “adventure”, developing this style in literature and its features are analyzed in this article.

Keywords: adventure, story work, chance, fantasy, fantasy adventure, science-fiction adventure, supernatural adventure, and historical adventure.

Sarguzasht so‘zi asli fors tilidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi boshdan o‘tkazilgan, kechirilgan degan ma‘noni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa ushbu so‘z boshdan o‘tgan voqea-hodisalar, boshdan kechirilgan kechinmalarga nisbatan qo‘llanishi qayd etiladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida sarguzasht adabiyotiga “...haqiqatda yuz bergan yoki to‘qib chiqarilgan voqealarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqeaband asarlarning umumiy nomi”¹⁴ deya ta‘rif beriladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, sarguzasht adabiyoti nafaqat real voqealarga asoslangan,

¹⁴ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. Toshkent. – 2013. 271-bet.

balki yozuvchining ijod mahsuli bo‘lishi ham tabiiy holdir. Jahon adabiyotshunosligida sarguzasht atamasi “adventure” nomi bilan keng tarqalgan. Bu so‘zning kelib chiqishi va shakllanishi o‘rta asrlarga borib taqaladi. “Adventure” atamasi qadimgi fransuz tilidan olingan va u “taqdir”, “qismat”, “kutilmagan voqea-hodisa” ma’nolarini anglatadi. Atama sifatida sarguzasht adabiyotiga xos bo‘lgan elementlar jahon va o‘zbek adabiyoti adabiyotshunoslikka oid kitoblar va lug‘atlarida qayd etiladi. “Sarguzasht adabiyoti namunalariga xos umumiy xususiyat sifatida sujet voqealarining shiddat bilan rivojlanishi, sirli va ajabtovur voqealarning yuz berishi, o‘tkir intrigalarga boyligi, syujet situatsiyalarining keskin o‘zgarishi va personajlar taqdirida ters burilishlar yuz berishi (omad – omadsizlik, baxtiyorlik – baxtsizlik), qahramonlarning turli sinovlarga duch kelishi-yu ularni yengib va sh.k.larni ko‘rsatish mumkin”¹⁵. Bunday adabiyot turida qahramon o‘z imkoniyatidan foydalanishi natijasida kutilmagan sayohatlarga chiqadi, boshidan qiziq-qiziq hangomalarni o‘tkazadi va g‘ayritabiiy hodisalarga guvohi bo‘ladi. Sarguzasht motivining asosiy elementi sifatida birinchi bo‘lib tasodifiy natija ko‘zda tutiladi. Chunki asar qahramonlari tasodifan sayohatga otlanadilar. Tasodiflar asarning boshidan oxirigacha juda muhim rol o‘ynaydi. Bu qahramon xarakterini shakllantiradi va yozuvchi maqsadini ochishda ko‘maklashadi. Shuningdek, sarguzasht yo‘nalishi yuksak aql va ko‘nikma bilan qahramonlarning osonlikcha chiqib keta oladigan qaltis vaziyatlarni, hayotiy tajriba bilan hal qilinadigan og‘ir muammolarni, jasurlik, mardlik va qo‘rqmaslikni talab qiladigan xavfli sayohatlarni o‘z ichiga oladi. Sarguzasht yo‘nalishida yozilgan asarlar adabiyot shakllana boshlagan ilk davrlardanoq juda mashhur bo‘lgan. Bunga sabab sifatida esa ibtidoiy insonlarning hayotida yuz bergan ko‘plab xavfli to‘qnashuvlar, iqlim bilan bog‘liq muammolar, bir hududdan ikkinchisiga ko‘chish kabi holatlar keltiriladi. Hayotda sodir bo‘lgan ushbu vaziyatlar inson ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ular adabiyotda asta-sekin o‘z aksini topa boshlagan. Xususan, xalq og‘zaki ijodining juda ko‘p turlarida buni yaqqol guvohi bo‘lamiz. Dostonlar syujetiga e’tibor qaratsak, qahramonlarning xarakterini shakllanishidagi asosiy omil sifatida sarguzasht

¹⁵ Quronov D., Mamajonov Z.,Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. Toshkent. – 2013. 271-bet.

yo‘nalishini ko‘ramiz. Obrazlar o‘z sarguzashtlari davomida ma‘lum tajribalarga ega bo‘lib, kamolga yeta boradi. “Ravshan” dostonini misol qilib keltirsak, yosh Ravshanning o‘z yori Zulxumor uchun chekkan azob-u uqubatlari asarni yana-da qiziqarli va mazmunli bo‘lishini ta‘minlagan. Dostonlarda sarguzashtlarning boshlanishi sirli kechadi. Yuqoridagi dostonda ham Ravshan sehrli uzuk natijasida Zulxumorga oshiq-u beqaror bo‘ladi-yu, sarguzashti tomon yo‘lga otlanadi. Sarguzashtning yana bir xususiyatini qayd etishimiz lozimki, asar qahramonlari har doim ham aqlli va donishmand bo‘lavermaydi, ba‘zan telbalik holatiga tushadilarki, bu sarguzashtning bir yo‘sinda faqatgina qahramonning g‘oyatda ustamon bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Sarguzashtning ushbu yo‘sinda kechishiga, ya‘ni borishi kitobxonni zeriktirmaydi va yanayam haddan tashqari ishtiyoqiga sabab bo‘ladi.

Mifologik rivoyat va hikoyatlarda sarguzasht eng qadimgi odamlarning qarashlari, fikrlarini ifodalab berish bilan birga, o‘sha davrdagi jamiyat, yashash tarzi haqida ham atroflicha ma‘lumot beradi. Dunyoda sarguzasht namunalari ingliz adabiyotining eng qadimgi namunalarida uchraydi. Ayniqsa, o‘rta asrlarda juda mashhur bo‘lgan “Beovulf” dostoni fikrimizni isbotlaydi. Bu dostonda sarguzashtning juda ko‘p elementlari uchraydi. Adabiyotshunoslik manbalarida Qirol Artur hikoyalari, o‘rta asrda yozilgan doston va hikoyalar turli shakldagi sarguzasht yo‘nalishida yozilgan. Sarguzasht ikki jihatdan insoniyat uchun juda muhim sanalgan. Birinchi jihat bu qahramonlik sayohatlarini tobora rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Nazariyotchi olim Jozef Kambel qahramonlik sarguzashtlar insoniyatning psixologik rivojlanishida juda muhim rol o‘ynaganligini ta‘kidlaydi. Ikkinchi jihatdan odamlarda odatiy hayotdan g‘ayritabiiy uzoq makonlarga borish, yovvoyi dunyoning haqiqiy go‘zalliklaridan bevosita bahramand bo‘lish istagi paydo bo‘lgan.

Servantesning “Don Kixot”, F.Rablening “Gargantuya va Pantagryuel”, J.Sviftning “Guliverning sayohatlari” kabi asarlar sarguzasht adabiyotining yetuk namunalaridandir. O‘zbek adabiyotida A.Navoiyning “Farhod va Shirin”, G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarlarida ham sarguzasht adabiyotiga xoslik mavjud. Garchi A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni ham shu tipdagi asar hisoblansa-da, ushbu asar bolalar adabiyotiga xos emas, ya‘ni ushbu asarda bolaning yosh

xususiyatlari hisobga olinmagan. Sarguzashtning ham juda ko‘p turlari bor, adabiyotshunoslar har biriga xos xususiyatlarni alohida ajratib berishgan. “Sarguzasht adabiyoti fantastika, ilmiy fantastika va detektiv adabiyotga yaqin turadi, aniqrog‘i sarguzashtlilik bu turdagi asarlarning barchasiga xos xususiyatdir”.¹⁶ Bundan kelib chiqadiki, sarguzasht adabiyotiga xos elementlar alohida yo‘nalish sifatida yo‘nalish ham shakllana boryapti. Jahon adabiyotshunoslik lug‘atlarida sarguzasht yo‘nalishini 4 turga bo‘lish nazarda tutiladi:

1. Fantastik sarguzasht
2. Ilmiy-fantastik sarguzasht
3. Tabiat bilan aloqador sarguzasht
4. Tarixiy sarguzasht¹⁷

Sarguzasht adabiyotining bir turi fantastik yo‘nalish nafaqat bolalar adabiyotida balki butun o‘zbek va jahon adabiyotida juda keng tarqaldi. Fantastik sarguzasht g‘ayrioddiy elementlardan foydalanish bilan rivojlantiriladigan usul hisoblanadi. Aynan bu yo‘nalishda X.To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati yoxud sehrgarlar jangi” asarini misol qilib keltirsa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sarguzasht adabiyotining elementlari barcha davrlarda – ilk yozma adabiyotdan boshlab to hozirgi kungacha rivojlanib taraqqiy etib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonov Z.,Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. Toshkent. – 2013. 271-bet.
2. A dictionary of literary and thematic terms. Edward Quinn. New York. 1932. The routledge dictionary of literary terms. New York. 2006.
3. Boltaboyev. H. Sharq mumtoz poetikasi. — T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. — 11 b.
4. .To'xtaboyev , X. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” .T.:Yangi asr avlodi. 2006. 5-bet.

¹⁶ Quronov D., Mamajonov Z.,Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. Toshkent. – 2013. 271-bet

¹⁷ A dictionary of literary and thematic terms. Edward Quinn. New York. 1932. The routledge dictionary of literary terms. New York. 2006.